O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “EZGULIK” KONSEPTINING LEKSIK IFODALANISHI

Sultanov Xayrullo
Andijon davlat universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillari lisoniy manzarasida “ezgulik” / “goodness” konseptining leksik-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil etilgan. Tadqiqotda konsept tushunchasining adabiy-estetik tabiatini yoritishda Izzat Sulton, Dilmurod Quronov kabi o‘zbek olimlari hamda A. Wierzbicka, D. Lixachev, V. Karasik kabi jahon tilshunoslarining nazariy qarashlariga tayanilgan. “Oxford English Dictionary” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” materiallari, shuningdek, har ikki xalqning maqollari asosida ezgulik tushunchasining milliy-madaniy xususiyati va ichki ma’noviy farqlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *konsept, ezgulik, goodness, lingvokulturologiya, lisoniy manzara, estetik ideal, mentalitet, aksiologik komponent, pragmatizm, niyat.*

Abstract

This article presents a comparative lexical, semantic, and linguacultural analysis of the concept of “ezgulik” / “goodness” within the Uzbek and English linguistic worldviews. To elucidate the literary and aesthetic nature of the concept, the study builds upon the theoretical frameworks of Uzbek scholars like Izzat Sulton and Dilmurod Quronov, as well as international linguists including A. Wierzbicka, D. Likhachev, and V. Karasik. Based on lexicographic data from the “Oxford English Dictionary” and the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”, along with proverbial lore, the paper uncovers the national-cultural codes and underlying semantic divergences that define the perception of goodness in both societies.

Keywords: *concept, ezgulik, goodness, linguaculturology, linguistic worldview, aesthetic ideal, mentality, axiological component, pragmatism, intention.*

KIRISH

Insoniyat yaralibdiki, o‘zini anglash, hayot soqitlarini muvozanatda saqlash va ma'naviy borligini asrash uchun universal qadriyatlarga tayanib keladi. Ana shunday o‘q ildizlardan biri, shubhasiz, “ezgulik” tushunchasidir. Ezgulik shunchaki axloqiy kategoriya emas, balki inson tafakkurining eng yorug‘, eng olijanob qatlamlarini birlashtiruvchi ijtimoiy va ruhiy hodisadir. Biroq bu tushuncha har bir xalqning bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, iqlimi, diniy va falsafiy dunyoqarashi prizmasidan o‘tganda, tilda mutlaqo o‘ziga xos va betakror lisoniy shakllarga burkanadi. Til nafaqat ushbu qadriyatni tashiydi, balki millatning ezgulik haqidagi tasavvurlarini o‘zida muhrlab, avloddan-avlodga o‘tkazuvchi jonli xaritadir. Dunyo sivilizatsiyasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan, ammo tuzilishi va madaniy ildizlari jihatidan keskin farqlanuvchi ikki til: o‘zbek va ingliz tillarida “ezgulik” konseptining ifodalanishini o‘rganish tilshunoslikda hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Garchi globallashuv jarayonlari insoniy qadriyatlarni umumlashtirayotgandek tuyulsa-da, so‘zlarning ichki ma'no qatlamlari, iboralar va maqollardagi milliy kodlar har bir tilning ichki immunitetini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi “goodness” so‘zlari zamirida aks etuvchi madaniyat ko‘proq

shaxs erkinligi, axloq va jamiyat uchun amaliy manfaatdorlik mezonlari bilan o‘lchanishga moyil. Aksincha, o‘zbek xalqi tafakkuridagi “ezgulik” tushunchasining lisoniy manzarasi butunlay boshqacha falsafiy iqlimga ega. O‘zbek tilining so‘z boyligida, ayniqsa mumtoz merosimiz, xalq dostonlari va maqollarida ezgulik individual tushuncha bo‘lishdan ko‘ra, jamoaviylik ,qalb pokligi, andisha va ko‘p asrlik Sharq-islom falsafasining sarchashmalaridan suv ichadi. O‘zbek kishisi uchun ezgulik bu shunchaki yaxshi amal emas, balki inson ko‘nglining komillikka intilishi, o‘zgalar dardi bilan yashash va ijtimoiy uyg‘unlikni saqlash san'atidir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi har ikki tilning leksik boyligini samimiy va chuqur lisoniy tahlil qilish orqali “ezgulik” konseptining milliy qirralarini ochib berishdan iborat. Ikki rang-barang madaniyatning lisoniy manzarasini qiyoslash orqali biz insoniyatning axloqiy tafakkuri tillarda qanday muhrlanganini, so‘zlarning qalb bilan aloqasini va tildagi ko‘chma ma'nolarning madaniy asoslarini kashf etishga harakat qilamiz.

Zamonaviy antropotsentrik tadqiqotlarda til shunchaki ijtimoiy aloqa vositasi emas, balki millatning ma’naviy borligini, uning estetik va falsafiy ideallarini o‘zida saqlovchi murakkab mental tizim sifatida talqin etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "konsept" tushunchasi til, falsafa va adabiyot kesishmasidagi markaziy lisoniy-estetik kategoriya hisoblanadi. "Ezgulik" kabi mavhum va olijanob axloqiy tushunchalarni tadqiq etishda nafaqat til tizimi qonuniyatlariga, balki o‘sha tushunchani jonlantiruvchi badiiy tafakkur sarchashmalariga tayanish lozim.

Adabiyotshunoslik va estetika sohasining yirik namoyandasi Izzat Sulton o‘zining fundamental ilmiy ishlarida badiiy ijodning bosh maqsadi va estetik ideal masalasiga to‘xtalib, adabiyot hamda tilning o‘zak vazifasi inson qalbida ezgulik urug‘ini ekish ekanligini ta’kidlaydi [Sulton, 1980, 56]. Olimning fikricha, har qanday badiiy asar zamiridagi obrazli tafakkur millatning adolat, go‘zallik va yaxshilik haqidagi lisoniy va falsafiy tushunchalari asosida shakllanadi. Binobarin, o‘zbek badiiy tafakkuridagi "ezgulik" konsepti shunchaki passiv leksik birlik emas, balki asrlar davomida adabiy meros prizmasidan o‘tib, milliy qahramonlar timsolida shakllangan faol estetik idealdir.

Konseptual fikrlashning adabiy va lisoniy tabiatini zamonaviy ilm-fan talablari doirasida tahlil etgan professor Dilmurod Quronov badiiy tafakkurdagi konseptualizatsiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratadi. Olim badiiy asar tili va undagi kalit tushunchalar millat dunyoqarashining, ya’ni metapoetikasining eng yorqin ko‘zgusi ekanligini asoslab beradi [Quronov, 2018, 42]. D. Quronovning yondashuvidan kelib chiqilsa, o‘zbek tilidagi “ezgulik” va ingliz tilidagi “goodness” konseptlarining lisoniy in’ikosi faqatgina lug‘aviy muqobillik darajasida emas, balki ushbu xalqlarning so‘z san'atida aks etgan ichki ruhiy-estetik kechinmalari ko‘lamida qiyoslanishi lozim. Madaniy konseptlarni dunyoning lisoniy manzarasini belgilovchi bosh omil sifatida baholagan xalqaro miqyosdagi olima A. Wierzbickaning fikricha, har bir til o‘ziga xos “kalit so‘zlar” tizimiga ega va ular orqali o‘sha jamiyatning o‘ziga xos qadriyatlar tizimini anglash mumkin [Wierzbicka, 1999, 312]. Olimaning qarashlaridan kelib chiqilsa, ingliz tilidagi *“goodness”* yoki o‘zbek tilidagi *“ezgulik”* tushunchalari aynan o‘sha jamiyatlar tafakkurini ochuvchi kalit lisoniy birliklar sanaladi.

Konseptning shunchaki tayyor lug‘aviy ma'no emas, balki inson ongida kechadigan jonli mental jarayon ekanligini akademik D. S. Lixachev chuqur asoslab bergan. Olimning ta'kidlashicha, konsept so‘zning lug‘aviy ma'nosi asosida shakllansa-da, u muayyan millatning va har bir shaxsning hayotiy tajribasi, madaniy va adabiy merosi hisobiga boyib boradi va yakunda umummilliy “konseptosfera”ni hosil qiladi [Лихачев, 1993, 3]. Ushbu nazariyaning falsafiy-semiotik jihatlariga to‘xtalgan Yu. S. Stepanov konseptni “madaniyatning inson aqliy dunyosidagi asosiy hujayrasi’ deb ta'riflaydi [Степанов, 2004, 42]. V. I. Karasik esa konsept tarkibida qadriyatli (aksiologik) komponent mavjudligini va u har qanday axloqiy tushunchaning o‘q ildizi ekanligini ta'kidlaydi [Карасик, 2002, 91]. Demak, ikki til tizimidagi ezgulikni qiyoslash bu shunchaki so‘zlarni emas, balki o‘sha tillarda muhrlangan xalqni qiyoslashdir. Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi hamda tilshunosligida to‘plangan nazariy tajriba shuni ko‘rsatadiki, konsept o‘zgarmas lisoniy birlik emas, balki badiiy-estetik tafakkur bilan sug‘orilgan o‘zgaruvchan hodisadir.

Ingliz tilining asosiy lug‘atlaridan biri “Oxford English Dictionary”da “goodness” so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “The quality of being morally good or virtuous; the beneficial or nourishing element of something”. Bu yerda diqqatni tortadigan jihat ezgulikning “beneficial” (foydali, manfaatli) elementi bilan bog‘lanishidir. Ingliz tafakkurida “yaxshilik” ko‘pincha ob’ektiv harakat va uning jamiyatga keltirgan moddiy yoki ma’naviy nafidir. O‘zbek tilida esa vaziyat butunlay boshqacha aks etadi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006, 5-jild, 42-b.) “ezgulik” so‘zini “Yaxshilik, xayrli ish, niyat; olijanoblik” deb izohlaydi. E’tiborli jihati, o‘zbekcha konsept tarkibida “niyat” (ichki motiv) tushunchasi bosh o‘ringa chiqadi. Ya’ni, ingliz tafakkuri harakatning yakuniy natijasiga qarasa, o‘zbek lisoniy ongi harakatning boshlanish nuqtasiga urg‘u beradi. Xalq og‘zaki ijodi va maqollar konseptning periferiyasini (yadro atrofini) ochib beruvchi eng ishonchli manbalardir. Ingliz va o‘zbek maqollarini qiyoslaganimizda, “ezgulik”ning kelib chiqish manbalari turlicha ekanligi ko‘rinadi: “Do well and have well” (Yaxshi ish qil va yaxshilikka erish) bu yerda hamkorlik va adolatli ijtimoiy shartnoma qonuni ustuvor. “Goodness is its own reward” (Ezgulikning o‘zi uning mukofotidir) axloq individual shaxsning ichki ongli tanlovi sifatida baholanadi. “Ezgulikning kechi yo‘q” yoki “Yaxshilik qil, daryoga tashla, baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar”. O‘zbek kishisi uchun ezgulik evaziga hech narsa talab qilinmaydigan, ijtimoiy uyg‘unlik va ilohiy majburiyatdir.

Olingan lingvistik va adabiy natijalar shuni tasdiqlaydiki, “ezgulik” o‘zbek va ingliz tillarida parallel semantik maydonlarga ega bo‘lsa-da, ularning ichki vaziifasi va lingvistik tabiati turlicha asoslangan. “Ezgulik” / “goodness” konseptining har ikki til tizimidagi leksik-semantik chegaralarini va milliy-madaniy xususiyatlarini badiiy matn qatlamlarida aniqlash maqsadida Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” (*Robinson Crusoe*) hamda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanlari materialiga tayangan holda olib borilgan tizimli tahlilimiz ikki xalqning lingvokulturologik tafakkuri o‘rtasidagi keskin farqlarni ko‘rsatdi. Ingliz lisoniy ongidagi *“goodness”* tushunchasi individual mas’uliyat, insonning o‘z taqdirini o‘zi o‘zgartirishga bo‘lgan irodasi hamda harakatning yakuniy amaliy-ratsional foydasiga (*practical benefit, comfort*) tayansa, o‘zbek lisoniy manzarasidagi *“ezgulik”* jamoaviylik, qalb pokligi, andisha va xolis niyat

kabi Sharq-islom falsafasining sarchashmalaridan ozuqa oladi. Defo asarida kimsasiz orolga tushib qolgan Robinzonning lisoniy ongida ezgulik mavhum axloqiy kategoriya bo‘lishdan to‘xtab, hayotni saqlab qolish va tartibga solishga qaratilgan ratsional harakatga aylanadi; u o‘z kundaligida hayotidagi qiyinchiliklar va yutuqlarni xuddi savdogar kabi “Evil” (Yomonlik) hamda “Good” (Ezgulik) ustunlariga ajratib tahlil qilarkan, *“But here was an expensive stock of all actions... and I tableted it down like debtor and creditor: ...Good: I am cast upon a horrible, desolate island, void of all hope... Comfort (Good): But I am alive; and not drowned”* [Defoe, 2008, 62] deya ezgulikni turli imkoniyatlar muvozanati sifatida baholaydi. Inglizcha *“goodness is its own reward”* maqoliga mos ravishda, bu yerda ezgulik insonning tashqi yordamsiz, o‘z aqliy va jismoniy mehnati orqali muhitni tartibga solishi bilan o‘lchanadi; hatto uning Jumavoy bilan munosabatida ham ezgulik uni individual erkinlik va foydali mehnatga o‘rgatish, ya’ni amaliy naf keltirish shaklida leksikalashadi. Aksincha, o‘zbek badiiy tafakkurining cho‘qqisi bo‘lgan “O‘tkan kunlar” romanida ezgulik subyektning tashqi dunyoni o‘zgartirishidan ko‘ra, uning ichki ruhiy olami, niyati va ko‘ngil komilligiga yo‘naltiriladi. Asarda o‘zbekona ezgulik konseptining eng mukammal lisoniy tashuvchisi bo‘lgan Yusufbek hoji obrazi shaxsiy manfaatdorlik yoki amaliy foydadan butunlay voz kechib, el-yurt osoyishtaligi, jamoat birligi va ijtimoiy uyg‘unlik uchun qayg‘uradi; uning fitnalarni to‘xtatish maqsadida aytgan: *“Biz o‘z ichimizdan chiqqan balolarga yo‘l berdik... Yurtni tinchitish, fuqaroning ko‘z yoshini artish har birimizning ham qarzimiz, ham farzimizdir. Niyatimiz xolis, amalimiz xayrli bo‘lsa, Tangri bizni yorug‘likka chiqarur”* [Qodiriy, 2019, 142] degan so‘zlarida faollashgan “niyatimiz xolis”, “amalimiz xayrli” leksik birliklari o‘zbek lisoniy ongi uchun ezgulikning boshlanish nuqtasi harakatning yakuniy natijasiga emas, balki eng avvalo uning ichki motivi - niyat pokligiga bog‘liqligini fundamental ravishda isbotlaydi. Otabek va Kumush munosabatlarida, oilaviy muloqotlarda tizimli ravishda bo‘rtib chiquvchi “andisha”, “insof”, “istihola” kabi konseptual qatlam elementlari o‘zbek kishisi uchun ezgulikning xohishlarni jamoat roziligi yo‘lida qurbon qila olish san’ati ekanligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, har ikki matnning qiyosiy-tizimli tahlili shuni tasdiqlaydiki, ingliz tilida “goodness” shaxsning tashqi dunyoga amaliy va foydali ta’sir ko‘rsatuvchi ratsional faoliyati sifatida voqelansa, o‘zbek tilida “ezgulik” inson ko‘nglining ilohiy va ijtimoiy uyg‘unlikka, o‘zgalar dardi bilan yashashga intiluvchi metafizik (ichki) tabiati bilan xarakterlanadi.

O‘zbek va ingliz tillarida yaxshilik tushunchasining ifodalanishini qiyosiy va badiiy matnlar asosida o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, tildagi har bir so‘z ortida o‘sha xalqning yashash tarzi, dini va tarixi turadi. Har ikki tilda ham bu tushuncha insonlikning oliy belgisi hisoblansa-da, hayotda va tilda qo‘llanishiga ko‘ra bir-biridan jiddiy farq qiladi. Agar ingliz tili tabiatida yaxshilik ko‘proq insonning shaxsiy erkinligi, jamiyat qonun-qoidalariga amal qilishi va eng muhimi, qilayotgan ishining atrofidagilarga keltiradigan amaliy foydasi bilan o‘lchansa, o‘zbek tili muhitida ezgulik insonni moddiy manfaatlar va dunyo o‘tkinchiligidan yuqori qo‘yuvchi, uni el-yurt va vijdon bilan bog‘lovchi ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘taydi. Tadqiqotimiz shuni isbotladiki, bugungi globallashuv davrida so‘zlar qanchalik bir-biriga yaqinlashmasin, xalqning maqollari, iboralari va adabiyoti ichida yashayotgan milliy xususiyatlar o‘zligini to‘liq saqlab

qoladi. Lug‘atlardagi quruq ta’riflar badiiy asarlarda jonlanib, har bir xalqning dunyoga bo‘lgan qarashini ko‘rsatib beradi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, ingliz tili egalari uchun yaxshilik tashqi dunyoni, inson hayotini moddiy va ijtimoiy jihatdan tartibga solish, hayot sifatini yaxshilash harakati bo‘lsa, o‘zbek tili egalari uchun u qalbni yomon niyatlardan tozalash, o‘zgalar dardi bilan yashash va atrofga mehr ulashish orqali tilda muhrlanadigan oliy tushunchadir. Ushbu farqlarni qiyosiy o‘rganish nafaqat tilshunoslik va tarjima ishi, balki turli madaniyat vakillarining bir-birlarini to‘g‘ri tushunishlari uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Defoe D. Robinson Crusoe. – London: Penguin Books, 2008. – 320 p.
2. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
3. Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка // Известия РАН. Серия литературы и языка. – М., 1993. – Т. 52, № 1. – С. 3–9.
4. Oxford English Dictionary. 2nd Edition. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 1024 p.
5. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 384 b.
6. Quronov D. Badiiy asar metapoetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 256 b.
7. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2004. – 992 с.
8. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 392 b.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildli. J. 5. / E.Begmatov va b.; tahrir hay’ati: T.Mirzayev (rahbar) va b. O‘zR FA Til va adabiyot in-ti. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 592 b.
10. Wierzbicka A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universality. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 349 p.